

ZAMONAVIY O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MATN VA MATNSHUNOSLIK MASALALARI

Suyunova Dildora Dilshodjonovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, talaba

Boboqulov Oybek Abdiqodirovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, talaba

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada matn tushunchasi va matnshunoslik fani tasniflari, bugungi kundagi yutuqlari, kamchiliklari hamda mavzuning qanchalar dolzarbligi borasidagi fikrlar yoritib berilgan. Maqolani o‘qish jarayonida ilmiy qo‘llanmalar hamda maktab darsliklaridagi farqlar ham ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: matn, matnshunoslik, minimal matn, maksimal matn, hikoya matn, tasviriy matn, muhokama matn.

Istiqlol natijasi o‘laroq, o‘zbek tilshunosligi tom ma’nodan mustaqil milliy fan sifatida o‘zini namoyon qildi. Eng muhimi, tilimizning milliy tabiatiga to‘laqonli ilmiy-nazariy baho berilmoqda. Qo‘lga kiritilgan nazariy yutuqlar til qurilishini o‘rganishdan uning voqelanish xususiyatlarining keng qamrovli tadqiqiga o‘tish uchun katta imkoniyatdir. Bu esa o‘zbek tilini yangi va zamonaviy, ilg‘or va samarador tadqiq usullari asosida o‘rganishni talab qilmoqda.

Bugungi kunda tilshunoslikning ayrim muammolariga dolzarblik tusi berilayotgani, mavjud ilmiy salohiyat muhim muammolar yechimiga yo‘naltirilmayapti, sohaning istiqbolini belgilaydigan asosiy vazifalarini o‘rganish hamon nazardan chetda qolmoqda. Ana shunday hali ham yechimi to‘liq yechilmagan

dolzarb muommolardan biri “Matn tushunchasi va matnshunoslik fani”dir. Bu mavzu ko‘plab olimlarning diqqatini tortgan va ko‘plab ilmiy ishlar qilingan.

Zamonaviy tilshunoslikda matn atamasiga ilmiy ta’rif beradigan bo‘lsak, “*matn nutqiy jarayon mahsuli bo‘lib, tugallangan, yozma shaklda mavjud bo‘lgan, adabiy shakllangan, supersintaktik butunliklardan tashkil topgan, leksik-grammatik, mantiqiy, uslubiy jihatdan shakllangan, aniq maqsadga yo‘naltirilganligi*” bilan belgilanadi. Har qanday matn ma’lum bir mazmuni tashish uchun xizmat qiladi, o‘z xususiyatiga ko‘ra turli axborotlarni yetkazadi. Matn nutq ko‘rinishi bo‘lib, vazifasi jihatidan tugal nutqiy butunlikdir. Har bir matn murakkab tuzilish va mazmun mundarijasiga ega bo‘lib, u og‘zaki va yozma ijod namunasi hisoblanadi⁴. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “Matn” atamasiga “tekst” so‘zi anglatgan ma’noga teng ekanligiga ishora qilingan.

Matn gapdan ko‘ra yirik hajmli aloqa vositasi, nutqiy faoliyat mahsuli, muayyan qonuniyatlar asosida shakllangan yozma nutq ko‘rinishidir. Matn hajm begisiga ko‘ra minimal va maksimal matnlarga ajratiladi. Ayrim adabiyotlarda matn hajm belgisiga ko‘ra uch turga ajratilgan: kichik, o‘rta, katta hajmli matnlar. Xalq og‘zaki ijodi hisoblangan maqol, matal, topishmoqlar, telegramma, ma’lumotnoma, ariza, ishonch xati, tushuntirish xati, vaqtli matbuotda chiqadigan e’lon va kichik xabarlar kichik hajmdagi matnlar sanaladi. O‘rta hajmdagi matnlarga hikoya, qissa, she’r, doston, poemalar kiradi. Katta hajmli matnlarga povest, roman, dramatik asarlar, trilogiyalar kiradi⁵. Biroq yuqoridagi bo‘linishlar ayrim chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Sababi, shunday dostonlar borki hajm jihatidan romandan katta. Nafaqat hajm jihatidan, balki ichki mazmun, xarakterlar tasviri, ruhiyat talqini jihatidan ham romanlardan qolishmaydigan dostonlar bor. Masalan, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” singari go‘zal dostonlarimiz shakl va mazmun jihatidan yirik hajmli asar hisoblanadi. Ko‘rinadiki, bu tarzdagi tasnif jiddiy asosga ega emas. Binobarin, matnni tilshunoslikda keng tarqalgan

⁴ Alpanova Shirin Hakimovna .”Matn tilshunosligi”. Andijon.2022.6-bet

⁵ Muhabbat Kurbanova, Ma’ruffjon Yo‘ldoshev. “Matn tilshunosligi”. Universitet. Toshkent. 2014.38-bet

ikkiga ajrarib tekshirish tamoyili asosida o‘rganish ham mantiqan, ham amaliy jihatdan maqsadga muvofiqdir. Shu jihatdan bo‘ladigan bo‘lsak, matnlar hajm jihatdan minimal hamda maksimal matnlarga bo‘linadi.

Minimal matn deganda biror mavzuni yoritishga qaratilgan qatralar, xalq donishmandligini ifodalaydigan maqol, matal va aforizmlar, hajviy asarlar, nomalar, she‘rlar, umuman, kichik mavzuni qamrab oluvchi bir necha gaplardan iborat butunlik tushuniladi. Matnning ichki tomonini mazmun yaxlitligi, tashqi tomonini esa turli shakldagi bog‘lamalar, sintaktik vositalar birlashtirib turadi. Masalan:

Hamkasblari yuz o‘girgan inson taskin topishi mumkin.

Do‘stlari yuz o‘girgan inson taskin topishi mumkin.

Umr yo‘ldoshi yuz o‘girgan inson taskin topishi mumkin.

Farzandlari yuz o‘girgan inson... Bilmadimov...

Keltirilgan kichik hajmli matnni tahlil qilsak, ushbu matnning ichki mazmuni darak shaklidagi sarlavha orqali yuzaga chiqqan. Matn beshta gapdan tuzilgan. Butunlikni ta‘minlayotgan vositalar sirasiga izchil va tugal ohang, takror qo‘llangan so‘z birikmalar kiradi. Shuningdek matnda fe‘lning bir-biriga nisbatan uzoq takrorlanishi kuzatilgan va bu simmetrik takrorlanish hisoblanadi.

Maksimal matn deyilganda keng ko‘lamdagi voqealarni yoritish ehtiyoiti bilan yuzaga kelgan butunlik nazarda tutiladi. Badiiy uslubda hikoya, qissa, roman kabi yirik hajmli asarlar maksimal matn deyiladi. Maksimal matn mikromatnlardan tashkil topadi.

Matnlar mazmuni va ifoda maqsadiga ko‘ra ham farqli tiplarga birlashadi. Bunda berilmoqchi bo‘lgan axborotning xarakteri va uni ifodalashdan ko‘zlangan maqsad asosiy o‘lchov vazifasini bajaradi. Bu nuqtai nazardan matnlarni nutqiy muloqotning asosiy shakllariga uyg‘un ravishda quyidagicha ajratish mumkin: hikoya matn, tasviriy matn, muhokama matn.

Matn tiplarini belgilashda yana bir omil - asos nutqning funksional uslublaridir. Matn funksional uslubiy mohiyatiga ko‘ra:

- ilmiy matn (tezis, maqola, ma’ruza, taqrizlar)
 -badiiy matn (nasriy vanazmiy asarlar)
 -rasmiy matn (ma’lumotnoma, qaror, buyruq, tavsifnoma, tavsiyanomalar)
 -ommabop matn (maqola, suhbat, tabrik va xitob nutqi matnlari) kabi tarmoqlarga bo‘linadi⁶.

Matn maqsad-mohiyatida tilning ikki muhim vazifasidan qaysi birining - kommunikativ vazifaningmi yoki estetik vazifaningmi - yetakchilik qilishiga asoslangan holda matnlarning ikki oppozitiv tiplarini farqlash zarur, yani badiiy matn va nobadiiy matn. Asosiy maqsad-mohiyatida kommunikativ vazifa yetakchilik qilgan matnni nobadiiy matn deb, asosiy maqsad mohiyatida estetik vazifa yetakchilik qilgan matnni esa badiiy matn deyish ma’qul.

Biz kundalik hayotimizda doim ham yangidan matn yaratmaymiz. Shunchaki o‘z ehtiyojlarimizdan kelib chiqqan holatda fikrimizni bayon qilishga urinamiz. Shu asosda badiiy matn ifoda mazmuniga ko‘ra ham tiplarga ajratiladi: hikoya mazmunli matn, tasviriy matn, izoh mazmunli matn, didaktik matn, xabar-darak mazmunli matn, so‘roq mazmunli matn, buyruq-istak mazmunli matn, hissiy ifoda mazmunli matn⁷.

Unutmaslik kerakki, biror bir badiiy matnda sanab o‘tilgan matn tiplarining hammasi yoki ayrimlari ishtirok etgan bo‘lishi mumkin. Yoxud butun boshli asar yuqorida zikr etilgan matn tiplaridan faqatgina bittasi asosida shakllangan bo‘lishi ham mumkin.

Bugungi kunda esa maktab darsliklarida matn tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: **“Ma’lum bir fikrni batafsil ifodalash uchun gaplarni tilimizning muayyan qoidalari asosida bog‘lab, matn tuzamiz. Mazmun va grammatik jihatdan bog‘langan, bir mavzuni ifodalovchi gaplar matnni hosil qiladi”**⁸. Ayrim mutaxassislar bittagina gap ham minimal matn tushunchasiga teng kelishi mumkin degan fikrni ilgari surishgan. N.Turniyozov *“matn bir so‘z bilan, bir necha so‘z bilan*

⁶ Muhabbat Kurbanova, Ma’rufjon Yo‘ldoshev. “Matn tilshunosligi”. Universitet. Toshkent. 2014.41-bet

⁷ Muhabbat Kurbanova, Ma’rufjon Yo‘ldoshev. “Matn tilshunosligi”. Universitet. Toshkent. 2014.42-bet

⁸ N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D. Nabiyeva. **Ona tili -6-sinflar uchun darslik.** “Tasvir” nashriyot uyi. Toshkent. 2017.11-bet.

bir necha gap bilan, bir necha abzats bilan va bir necha bob bilan ham ifodalanishi mumkin”ligini aytadi. Lekin olim shuni ham ta’kidlaydiki, *“matn lingvistikasi muammolarini bir so’zli, birikmali yoki biror sodda gap bilan ifodalangan matnlar asosida o’rganish maqsadga muvofiq emas. Chunki bunday matnlarga tayanib til sistemasi unsurlarining nutqqa ko’chirilishiga oid masalalar tavsifini mukammal holatda berib bo’lmaydi”*⁹.

Misol tariqasida Faxriyorning *“Oy bolta”* she’rini oladigan bo’lsak, biz adabiyot darsliklarimizga buni she’r deb qabul qilganmiz. Sababi bu ma’lum bir tushunchani ifodalaydi va tugal fikrni beroladi. shu sababli ham biz buni she’r shaklidagi matn deb qabul qilganmiz. Bundan tashqari, *“Kuz”, “Bahor”* va boshqa shunga o’xshash keng ma’noli, muhokamaga sabab bo’ladigan, insonlarning ko’z oldida bir qancha tasavvurlarni paydo qiluvchi so’zlarni ham matn deb bilishimiz mumkin. Negaki, ularda ma’lum bir ma’no-mazmun mavjud. Yana shuni aytish mumkinki, bizga maktab davridan *“matn bir necha gaplardan tashkil topadi”*- degan fikr aytib kelingan. Lekin aslini olib qaraganda esa xalq og’zaki ijodiga mansub bo’lgan maqol, matal, topishmoqlar, asarlardagi epigraflar va yuqorida aytib o’tilgan bir so’zdan iborat bo’lgan tugal mazmunga ega bo’lgan bitta so’z ham minimal matn hisoblanadi. Sababi, ular bitta gapdan tashkil topgan bo’lsada tugal fikrni ifodalaydi va tahlil qiluvchi shaxsni muhokamaga chorlay oladi.

Xususan, matnni og’zaki yoki yozma shaklda bo’lishi haqida qarashlar turlicha. Ayrim tilshunoslar matn yozma shaklda bo’lishi uning belgilari orasida eng asosiysi ekanini ta’kidlaydilar (L. Loseva, I. Galperin, Z. Turaeva). Boshqa guruh olimlari esa matn faqat grafik, yozma shakldagina emas, balki og’zaki shaklda ham namoyon bo’ladigan nutqiy asar ekanligini e’tirof etadilar. (Masalan, R. Karimova, M. Yo’ldoshev, A. Hojiev). Qayd etish kerakki, kishilar o’rtasidagi aloqa – kommunikatsiya faqat yozma shaklda amalga oshishi mumkin emasligi ikkinchi fikrni

⁹ Muhabbat Kurbanova, Ma’rufjon Yo’ldoshev. “Matn tilshunosligi”. Universitet. Toshkent. 2014. 39-bet

asoslaydi. Negaki, insonlar muloqot chog'ida suhbatlashishadi va o'z fikrlarini ifodalash orqali tugal mazmunga ega matn yaratishadi¹⁰.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, bugungi kunda o'zbek tilimizdagi yutuqlarimiz mavjud. Singari tilimizdagi kamchiliklar ham bisyor. Buni yuqoridagi matn tushunchasi hamda matnshunoslik fanidagi kamchiliklar hamda bir biriga zid bo'lgan qarashlardan ham bilish mumkin. Matnshunoslik sohasida bir qancha ilmiy ishlar, dissertatsiyalar yoqlangan bo'lsada fanning kamchiliklardan biri bo'lgan matnning og'zaki va yozma bo'lishi yoki ikkala variant ham to'g'riligi, hamda bir so'zni matn deb qabul qilish kerakligi haqidagi ko'plab olimlarning fikrlarining bir- biriga zidligi va bu borada hali ham bir to'xtamga kelinmaganligi, bu muommalarning hali hamon o'z yechimini topmaganligi tilimizning kamchiligidur. Hali hanuz bir-biriga zid qarashlar mavjudligi sababli ham matn mavzusi dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI: (REFERENCES)

1. Muhabbat Kurbanova, Ma'rufjon Yo'ldoshev. “Matn tilshunosligi”. Universitet. Toshkent. 2014.38-39-41-42-betlar.
2. **N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D. Nabiyeva. Ona tili. 6-sinflar uchun darslik.** “Tasvir” nashriyot uyi. Toshkent. 2017.11-bet
3. Alpanova Shirin Hakimovna . “Matn tilshunosligi”. Andijon. 2022. 6-12-betlar.

¹⁰ Alpanova Shirin Hakimovna . “Matn tilshunosligi”. Andijon.2022.12-bet.